

SO'ZLARNING O'Z VA KO'CHMA MA'NOLARI

Norqulova Zarnigor Shavkat qizi

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti.

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20175230>

Annotatsiya: So'zlarning o'z va ko'chma ma'nolari tilshunoslikda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular tilning mazmun va ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi. O'z ma'nosi so'zning dastlabki, asosiy va konkret tushunchani ifodalaydigan ma'nosidir. Bu ma'no hamma uchun tushunarli va bevosita anglanadi. Masalan, „yurak“ so'zi qon haydash a'zosini bildiradi. Biroq, so'zlar ko'pincha badiiylik, obrazlilik yoki ko'proq ta'sir uyg'otish maqsadida ko'chma ma'noda ishlatiladi. Ko'chma ma'no so'zning o'z ma'nosidan chekinib, boshqa tushunchalarni ifodalashga xizmat qiladi. Bu jarayon asosida o'xshashlik, metafora yoki majoziy ma'no yotadi. Masalan, „yurak“ ko'chma ma'noda jasorat yoki mehri-qibatni ifodalaydi. Tilning boyligi va badiiy ifoda kuchi ko'p jihatdan so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolaridan foydalanishga bog'liq. Bu hodisa adabiyot, muloqot va boshqa sohalarida tushunchalarni yanada rang-barang ifodalash imkonini beradi. So'zlarning o'z va ko'chma ma'nolarini o'rganish, nafaqat tilshunoslik balki adabiy asarlarni tahlil qilish uchun ham muhimdir. Bu hodisa til rivojlanishida ijodkorlik va nutq ta'sirchanligini oshiradi.

Kalit so'zlar: o'z ma'no, ko'chma ma'no, metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, kinoya.

Kirish. Tilshunoslikda so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolarga ega bo'lishi tilning boyligi va ifoda imkoniyatlarini kengaytiradigan asosiy omillardan biridir. Har bir so'z avval o'ziga xos asosiy ma'noga ega bo'lib, aniq bir hodisa yoki tushunchani ifodalaydi. Ammo tilni yanada ta'sirchan va badiiy qilish maqsadida ko'chma ma'nolarning yuzaga kelishi kuzatiladi. Bu jarayon odamlarning fikr va hissiyotlarini yanada samarali ifodalash imkonini beradi.

Ma'lumki, ba'zi so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolari bo'ladi.

O'z ma'no so'z yoki iboraning to'g'ridan-to'g'ri, asosiy ma'nosini bildiradi. Bu lug'aviy yoki dastlabki ma'no sifatida tushuniladi. Masalan: quloq- eshitish a'zosi.

Ko'chma ma'no so'zning nutq tarkibida anglatgan ma'nosi bo'lib, uning qanday ma'noda ekanligi nutqdagi boshqa so'zlar yordamida aniqlanadi. Masalan: qozonning qulog'i, radioning qulog'i.

Ko'chma ma'noli so'zlar qanday ma'no asosida ko'chayotganligiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi: 1. metafara 3. sinekdoxa

2. metonimiya 4. vazifadoshlik

1. Metafora - yunoncha „metaphora“ ko'chirish so'zidan olingan bo'lib, bir predmet nomining boshqa predmet nomiga ular o'rtasidagi ma'lum o'xshashlik asosida ko'chishidir. Metafara narsa yoki tushunchalar o'rtasidagi o'xshashlik asosida nom (so'z)ning ko'chishidir. Agar ko'chma ma'noda qo'llangan so'z sifat yoki fe'l so'z turkumida bo'lsa, u metafora usulida ma'no ko'chgan hisoblanadi. Masalan, qozonning qulog'i birikmasidagi quloq so'zining ma'nosi metaforik ma'no, chunki u doimiy metaforaga aylangan, ya'ni turg'unlashib, mazkur tushunchaning nomiga aylangan. Mohir so'z ustalari o'z asarlarida so'zlarni metaforik ma'noda qo'llash orqali ifodali, obrazli nutqning go'zal namunalarini yaratadilar. Quyidagi misolda buni ko'rish mumkin:

Manglayi tirishar zinapoyaning,

Panjara kuylaydi misoli chiltor.

Terlab ketganini ko'rsang oynaning,

Hamma narsa seni kutar intizor. (Iqbol Mirzo)

Metaforalarga juda yaqin vosita o'xshatish hisoblanadi. O'xshatish ham ko'chma ma'no ustiga qurilishiga qaramasdan metafora hisoblanmaydi. O'xshatishlarda -dek, -day, -simon, -vash, -namo, kabi, singari, misoli, o'xshash kabi vositalar qo'llaniladi.

Ulug'bek – yurtimiz quyoshi. (Metafara)

Ulug'bek misoli quyosh. (o'xshatish)

O'xshatish adabiyotshunoslikda **tashbeh** deyiladi.

Izoh: Metafora adabiyotshunoslikda **istiora** san'atini hosil qiladi.

Kamoning o'qig'a nishona ko'ngil,

Zuloling qoshida devona ko'ngil...

Metafora asosida ma'no ko'chishning asosiy yo'llari quyidagilar:

1. Odamning tana a'zolari nomlari- bosh, ko'z, oyoq, burun... Masalan: chaynakning burni, kitobning beti, Yer yuzi, ko'chaning boshi...

2. Kecha- kunduzga xos narsa-belgi nomlari- yorug'lik, qorong'i...

3. Kiyimlar va ularning qismlari- etak, yoqa.. Masalan: tog'ning etagi, daryoning yoqasi.

4. Fasl nomlari va fazo jismlari- bahor, qish, quyosh, yulduz...

5. Hayvon, parranda, hasharot yoki ularning a'zolari- tulki, lochin, dum, qanot.. Masalan: Futbolchilarimiz chap qanotdan hujum uyushtirdilar.

6. Odamga xos xususiyatlar, harakat- holatlar jonli va jonsiz narsaga ko'chirilganda ham metafora hosil bo'ladi: Bulutlar orasidan bulut kulib qaradi.

Jonli va jonsiz narsalarga xos xususiyatlar, harakat va holatlar odamga ko'chirilsa ham metafora hosil bo'ladi: Bolalar yopishavergach xaltani ochishga majbur bo'ldi-da, labini burib vaysay boshladi.

Quyidagi ismlar ham metafora asosida qo'yilgan: Yo'lbars, Bo'riboy, Qoplonbek, Burgutbek, Gulnora, Gulchehra, Feruza, Yoqutoy, Charos, Ozoda, Oyxon, Asalxon va h.k.

2. Metonimiya- yunoncha so'z bo'lib, „qayta nomlash“, „nomni o'zgartirish“, „yangi nom qo'yish“ degan ma'nolarni anglatadi. Narsa va hodisalar o'rtasida makon va zamondagi o'zaro aloqadorlik asosida birining nomi ikkinchisiga ko'chishi metonimiya deyiladi.

Masala: Bu yerga termulib parishon dunyo (to'liq holati: dunyo odamlari)

To'g'irlab oladi qo'lda soatin. (A. Oripov)

1. Biror joyni yoki davrni aytib, o'sha joydagi yoki o'sha davrdagi odamlar nazarda tutilganda: Zal oyoqqa turdi. Fidel Kastroning o'limiga butun Kuba aza tutdi. Bolm, qiyinchiliklarni sen ko'rmading. Urush yillari ko'rdi.

2. Bir predmetning nomini shu predmet tarkibidagi biror narsa nomi bilan nomlash: bosh og'rimoq (aslida miya), ich og'rimoq (aslida qorin bo'shlig'ida joylashgan a'zolar).

3. Bir predmetning nomi shu predmetdan hosil bo'ladigan nom asosida qayta nomlash: choy (o'simlik)- choy (ichimlik); til (nutq a'zosi)- til (nutq); dam (nafas, havo)- dam (vaqt, daqiqa);

4. Biror bir joy yoki tashkilot aytilib, unga tegishli kishilar tushunilsa: „televideniya“ga joy tayyorlab qo'ydinglarmi?

5. Biror joydagi narsani aytib, o'sha joy tushunilsa: daadam samovarda choy ichyapti. Oshda ko'rinmadingiz.

6. Muallif yoki boshqa qahramonni aytib, uning asari tushunilsa: Otam bog'bon. Navoiyni hech qo'ltiqdan qo'ymas, onam pillakor, Mashrabga zo'rg'a tishi o'tadi.

7. Biror shaxsni kiyimi yoki ko'p takrorlaydigan so'zi orqali tushunilsa: Hoy qizil shapka, qayoqqa ketyapsan?

8. Biror bir narsaning nomi uni yaratgan shaxs nomidan kelib chiqsa: Ford, Rentgen, Om qonuni, Nyuton kuchi, Nobel mukofoti.

9. Tana a'zolari nomidan kasallik nomi yuzaga kelsa: bosh og'rig'i, tish og'rig'i, bel og'rig'i va h.k

Yodda tuting! Ammo qo'l og'rig'i, burun og'rig'i degan kasalliklar xalq tilida yo'q. „Qo'lim og'riyapti“ deyiladi. Shuning uchun ularda ma'no ko'chishi mavjud emas.

Metonimiya asosidagi ko'chma ma'no – fikrni lo'nda va ta'sirchan bayon qilish vositasi. Shu jihatdan ushbu ma'no ko'chishi tejamkorlik ma'no ko'chishi deb ham yuritiladi.

3. Sinekdoxa –yunoncha so'z bo'lib, „birgalikda anglash“, „nazarda tutish“ degan ma'noni bildiradi. Sinekdoxa narsa yoki tushunchalar o'rtasidagi butun-bo'lak munosabati asosida birinin nomini ikkinchisiga ko'chirishdir. Butun bilan qismni ifodalash: Besh qo'l barobar emas. Olma archiyotib qo'lini kesib oldi. Qism orqali butunni ifodalash: Ertalabdan buyon tuz totganim yo'q. Shu bitta tuyoq bilan oltita bolani boqdim.

Izoh: Mumtoz she'riyatda oy yuz, qorako'z, oq bilak, sarvqad kabi atamalar „yor“, „dildor“ ma'nosida ishlatilib, sinekdoxa hosil qiladi.

Sajda aylar zohid ul mehrob aro,

Men qilurman sajda egma qoshima.

4. Vazifadoshlik-funksiyadoshlik. Bu ko'chimda ham o'xshashlik bo'ladi. Lekin bu o'xshashlik narsa va hodisa o'rtasidagi vazifaviy bir xillik asosida birining nomi orqali ikkinchisi tushuniladi. Masalan: Odamning oyog'i. Stolning oyog'i.

Kamon o'qi (o'z ma'nosida)

Zambarak o'qi (ko'chma ma'noda)

Raketa o'qi (ko'chma ma'noda)

Vazifadoshlik asosida vujudga kelgan so'zlarni bilish, ularning ilgari qanday shakildagi narsalarni ifodalaganligini anglash tilimiz imkoniyatlarining naqadar boy ekanligini his qilishimizga yordam beradi. Qanot, yurak, oyoq, ko'z, bosh so'zlari vazifadoshlik asosida ko'chishi mumkin.

Ramazon aytib keldik eshigingizga...gapida Ramazon oyida aytiladigan ashula „Ramazon“ deb qayta nomlangan (metonimiya) bo'lsa, eshik so'zida esa qism- bo'lak munosabati (sinekdoxa) mavjud. Demak, bir gap tarkibida ma'no ko'chishning bir necha ko'rinishlari mavjud bo'lishi ham mumkin.

Gunohi ne edi bu tilla boshning. Gunohi ne edi porloq quyoshning gapida ham metafora, ham sinekdoxa yuzaga kelgan: bir tomondan quyosh tilla boshga o'xshatilsa, ikkinchi tomondan bosh so'zi orqali, ya'ni qism orqali butun nazarda tutilgan.

Insoniyat dushmani mal'unga qiron solib, Qilichim tili bilan so'zimni ayta oldim“, -deb yozgan edi G'afur G'ulom gapida ham yuqoridagi holat kuzatiladi: qilichim tili- metafora, qilich so'zi esa qalamni qayta nomlagan.

5. Kinoya. Nutqning ifodaliligi, ta'sirchanligini oshirishda kinoya ham alohida o'rin tutadi. Bunda so'z yoki kinoya so'zlovchining tasvirlanayotgan narsa yoki tushunchaga kesatiqli, pichingli, istehzoli, umuman, subyektiv- kulgi aralash munosabatini ifodalash vositalaridan

bo'lganligi uchun ham so'z yoki iboraning to'g'ri ma'nosiga zid ya'ni inkor, emotsional-ekspressiv bo'yoqli ma'no voqealanadi. Bunday kinoyaviy ma'noning voqealanishida nutq vaziyati, kontekst va intonatsiya ham alohida rol o'ynaydi.

Xulosa: So'zlarning o'z va ko'chma ma'nolarda ishlatilishi nutqni boyitadi va ifoda vositalarini kengaytiradi. O'z ma'no bevosita va aniq tushunchalarni ifodalasa, ko'chma ma'no obrazli va majoziy ifodalar orqali so'zga yangi qirralar bag'ishlaydi. Bu esa fikrni yanada ta'sirchan va estetik tarzda ifodalash imkonini beradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Rustamjon O'rinov, Mamatqulova Zulayho Ona tili o'quv qo'llanma Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2022- 288 b
2. Zulfiya To'ychiyeva Ona tilidan sertifikat va attestatsiyaga tayyorlov: Toshkent: Bayoz, 2023- 416 bet